

**O'ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.27.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O'ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

ZIYADULLAYEV ILXOM OBLAKULOVICH

**NEMIS TILIDA FE'L-NEOLOGIZMLARNING VERBOSENTRIK
XUSUSIYATLARI**

10.00.04 – Yevropa, Amerika, Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

TOSHKENT – 2025

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasи**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
philological sciences**

Ziyadullayev Ilxom Oblakulovich

Nemis tilida fe'l-neologizmlarning verbosentrik xususiyatlari..... 3

Зиядуллаев Ильхом Облақулович

Вербоцентрические особенности глаголов-неологизмов в немецком языке..... 23

Ziyadullaev Ilkhom Oblakulovich

Verbo-centric features of verb neologisms in the German language..... 47

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 52

**O'ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.27.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O'ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

ZIYADULLAYEV ILXOM OBLAKULOVICH

**NEMIS TILIDA FE'L-NEOLOGIZMLARNING VERBOSENTRIK
XUSUSIYATLARI**

10.00.04 – Yevropa, Amerika, Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2017.3.PhD/Fil270 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston davlat jahon tillari universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.uzswlu.uz) hamda "ZiyoNet" axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Ismailov Yusub Niyazmetovich
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Xayrullayev Xurshid Zayniyevich
filologiya fanlari doktori, professor
Axmedov Anvar Botirovich
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.Fil.27.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "___" _____ soat ____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100138, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Kichik halqa yo'li ko'chasi, G-9A mavzesi, 21-uy. Tel.: (71) 230-12-91; faks: (71) 230-12-92; e-mail: uzdjtu@uzswlu.uz.)

Dissertatsiya bilan O'zbekiston davlati jahon tillari universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100138, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Kichik halqa yo'li ko'chasi, G-9A mavzesi, 21-uy. Tel.: (71) 230-12-91; faks: (71) 230-12-92.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "___" _____ kuni tarqatildi.

(2025-yil "___" _____ dagi ___ raqamli reyestr bayonnomasi.)

I.M. Tuxtasinov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
pedagogika fanlari doktori, professor

X.B. Samigova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy
kotibi, filologiya fanlari doktori, professor

J.A. Yakubov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy
qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari
doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbliji va zarurati. Jahon tilshunosligida ekstralolingvistik va intralingvistik omillar ta'sirida paydo bo'lgan yangi leksik birliklarning uchrashi jarayonlarni nafaqat etimologik, strukturaviy va tematik balki kognitiv, lingvomadaniy, diskurs va pragmatik aspektida tadqiq qilishga e'tibor kuchayayotganligi natijasida ilmning bu yo'nalishlarini tadqiq qiluvchi alohida neologiya fani tarmoq sifatida shakllandi va jadal rivojlanmoqda. Har bir til muayyan davr talabi va ehtiyojlariga moslashadigan lingvistik belgilarning dinamik strukturasini hisoblanadi. Axborot va kommunikatsiya texnologiyalari, OAVlari – internet, iqtisodiyot, siyosat va boshqa sohalarda tez rivojlanayotgan ishlanmalar, yangi ixtiolar, o'z navbatida, tilda lisoniy mos ifoda vositalarini talab qilmoqda.

Dunyo tilshunosligi muntazam ravishda jamiyatning rivojlanish jarayonida nominatsiyalarga zaruriyat paydo bo'ladi va ushbu ehtiyoj kommunikativ akt ishtirokchilari tomonidan to'ldirishni taqozo etadi. Darhaqiqat, til strukturasidagi moslashuvlar, avvalo, tilning leksik qatlami uchun nihoyatda muhim. Tilning mavjudligi va rivojlanishi jamiyat bilan uzviy bog'liq. Ijtimoiy hayotimizdagi rivojlanishlar esa, albatta, tilda o'z aksini topadi. Shu sabab tilda beto'xtov yangi so'zlar paydo bo'lmoqdaki, bular lug'at tarkibini boyitmoqda. Ayniqsa, internet tarmog'i tilda yangi muomalaga kiritilayotgan so'z va iboralarni birinchilardan aks ettiradigan asosiy ko'zgu bo'lib kelmoqda. Ilmiy adabiyotlarni izchil kuzatish va tahlil qilish, umumiyligining tilshunoslikda, shu jumladan, nemis tilshunosligida ham XX asrning oxiri XXI asr bosqlarida paydo bo'lgan yangi leksik birliklarni kompleks o'rganish zaruriyati mavjudligini ko'rsatdi. Terminologik manbalarda neologizmlar yangi leksik birliklar sifatida tushunilib, ular yangi tematik-variativ innovatsion leksemalar sifatida til lug'at tarkibini to'ldirish va boyitish manbasi hisoblanadi. Neologizmlar paydo bo'lishi, ularning til strukturasida o'z o'rmini munosib topishi va kommunikativ aktida ifodalanishi kabi xususiyatlari bilan ajralib turadi. Nomlanishlarning "bo'shlig'i" ehtiyoji neologizmlar orqali qondiriladi.

So'nggi yillarda O'zbekiston va G'arbiy Evropadagi nemiszabon mamlakatlar, xususan, Germaniya Federativ Respublikasi o'rtasida siyosiy, iqtisodiy, mehnat migratsiyasi va madaniy aloqalar yangi pog'onaga ko'tarilmoqda, shu sababdan mamlakatimizda xorijiy tillarni, jumladan, nemis tilini birinchi va ikkinchi chet til sifatida o'rganishga e'tibor qaratilmoqda. Zero, "... ilmsiz, innovatsiyasiz oldimizga qo'ygan maqsadlarga hech qachon erisha olmasligimiz"¹ ayni haqiqat. Bu esa, o'z-o'zidan ayonki, chet tilini o'rganish jarayonida tilda paydo bo'lgan yangi leksik birliklar – neologizmlarni o'zlashtirish til o'rganuvchilarda kommunikativ kompetensiyaga olib boruvchi lingvistik kompetensiyalarning shakllanishi va rivojlanishida muhim ahamiyat ega. Ma'lumki, tilda o'zgarish va yangilanishlar dastlab leksik sathda namoyon bo'ladi, chunki u til atrofida sodir

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2020-yil 3-dekabrda ilm-fan va innovatsiyani rivojlantirish borasida oliy ta'lim muassasalari, ilmiy tashkilotlar, tarmoq va hududlar oldidagi ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan o'tkazgan videoselektor yig'ilishidagi nutqi [Elektron manba] // O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti. – URL: <https://president.uz/oz/lists/view/3985> (Murojaat sanasi: 12.12.2024).

bo‘layotgan o‘zgarishlarga ilk aks-sado beradigan qatlam hisoblanadi. Shuning uchun ham nemis tilida paydo bo‘lgan neologizmlarning verbosentrik, paradigmatisk, leksikografik xususiyatlarini ilmiy tadqiq qilish dolzarb nazariy-amaliy ahamiyatga egadir.

Mazkur dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O‘RQ-637-son “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-avgustdagagi 610-son “Ta’lim muassasalarida chet tillarini o‘qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori hamda boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Tilshunoslikda yangi paydo bo‘lgan fe’lli leksik birliklar tilning barcha sathlariga moslashuvi muammosi dunyo tillarida keng o‘rganilib kelinmoqda. Fe’lning sintaktik, semantik valentlik va uning gapda verbosentrik xususiyatlarini o‘rganish bilan nemis tilshunosligida Y.Erben, H.Brinkmann, H.Shumaxer, U.Engel, V.Flaysher, V.Agel, V.Schmidt, fransuz tilshunosligida V.G. Gak, L.Tenyer, rus tilshunosligida V.G. Admoni, R.S. Ambarsumyan, M.D. Stepanova, S.D. Kasnelson, V.B. Kasevich, S.M. Kibardina, I.B. Dolinina, V.Devkin, Y.Rozen, o‘zbek tilshunosligida I.Qo‘chqortoyev, N.Maxmudov, A.Nurmonov, X.Abdurahmonov, S.X. Muhammedova, M.Abuzalova, D.Abdullayeva, O’.Sharipova, T.Musayev, Q.Hakimov, R.Rasulovlar, o‘zbek va nemis tillari qiyosiy aspektida A.Bushuy, M.Nusharov, B.Primov, A.Raxmanovlar shug‘ullanishgan. Shuningdek, fe’lning frazeolik birikmalardagi lisoniy belgilarini M.Umarxodjayev, fe’lning aspektual semantikasida zamon shakllarini B.Rizayev tadqiq qilgan².

² Erben J. Abriss der deutschen Grammatik. – Berlin: Akademie-Verlag, 1966. – 316 S.; Brinkmann H. Die deutsche Sprache: Gestalt und Leistung. – 2. Aufl. – Düsseldorf: Schwann, 1971. – 939 S.; Schumacher H. Verben in Feldern: Valenzwörterbuch zur Syntax und Semantik deutscher Verben. – Berlin; New York: Walter de Gruyter, 1986. – 882 S.; Engel U. Deutsche Grammatik. – 3., korrig. Aufl. – Heidelberg: Julius Groos Verlag, 1996. – 888 S.; Ágel V. Valenztheorie. – Tübingen: Narr, 2000. – 302 S.; Fleischer W., Helbig G., Lerchner G. Kleine Enzyklopädie: Deutsche Sprache. – Frankfurt am Main; Berlin; Bern; Bruxelles; New York; Oxford; Wien: Peter Lang, 2001. – 846 S.; Schmidt W. Deutsche Sprachkunde. – Berlin: Akademie Verlag, 2008. – 356

Tildagi yangi leksik birlik, ya’ni neologizmlarning, qolaversa, fe’l-neologizmlarning semantik, derivatsion, denonativ makonda stilistik, pragmatik xususiyatlarini, media-diskursdagi funksiyasini, lingvistik tipologiyasini, OAV tilida qo’llanilishini, analogiya bo‘yicha yasalishini olib berishga bag‘ishlangan tadqiqot ishlarini rus tilida V.Devkin, R.Mixeyeva, Y.Novikova, L.Nurgaliyeva, N.Russu, ingliz tili misolida V.Zabotkina, V.Kabakchi, nemis tilida R.Klappenbach, V.Shtaynits, D.Xerberg, M.Kinne, X.Elzen, X.Viyegand, D.Shteffens, O.Nikitina, L.Lemnitser, o‘zbek tilshunosligida so‘z va uning estetikasini X.Abdurahmonov, tilda okkazional so‘z yasalishini, okkazional so‘zlarning badiiy-estetik xususiyatlarini S.Toshaliyeva, nemis tili leksikasida innovatsiyalar jarayonlarini A.B. Axmedov, nemis tili yuqori leksikasining xususiyatlarini Y.N. Ismailov, ingliz tili okkazional birliklarning derivatsiyasini I.Ibragimxodjayev kabi olimlar ilmiy tadqiq qilishgan³.

Ushbu tadqiqot ishida valentlikning semantik nazariyasi muammolari, nemis

S.; Гак В.Г. Структурная и семантическая деривация конструкций с предикатными актантами // Типология конструкций с предикатными актантами / под ред. В.С. Храковского. – Ленинград: Наука, 1985. – С. 18–21; Теньер Л. Основы структурного синтаксиса / пер. с фр. И.М. Богуславского и др.; вступ. ст. [с. 5-21], общ. ред. [и коммент.] В.Г. Гака. – Москва: Прогресс, 1988. – 653, [1] с.; Адмони В.Г. Синтаксис современного немецкого языка. – Ленинград: Наука, 1973. – 365 с.; Амбарцумян Р.С. Логико-семантические и синтаксические аспекты теории валентности (немецкий язык): Дисс. ...канд. филол. наук. – Москва: Минский государственный педагогический институт иностранных языков, 1976. – 144 с.; Степанова М.Д., Хельбиг Г. Части речи и проблема валентности в современном немецком языке. – Москва: Высшая школа, 1978. – 259 с.; Кацнельсон С.Д. К понятию типов валентности // Вопросы языкоznания. – 1987. – № 3. – С. 20–32; Касевич В.Б. Семантика. Синтаксис. Морфология. – Москва: Наука, 1988. – 309 с.; Кибардина С.М. Валентность немецкого глагола: Дисс. ...док. филол. наук. – Вологда: Вологодский государственный университет, 1988. – 580 с.; Долинина И.Б. Синтаксически значимые категории английского глагола / Отв. ред. Т.В. Булыгина. – Ленинград: Наука, 1989. – 216 с.; Девкин В. Очерки по лексикографии. – Москва: Прометей, 2000. – 395 с.; Розен Е. Как появляются слова: Немецкая лексика: история и современность. – Москва: МАРТ, 2000. – 156 с.; Кўчқортойев I. So‘z ma’nosи va uning valentligi. – Toshkent: Fan, 1977. – 168 б.; Абдураҳмонов X., Маҳмудов Н. Сўз эстетикаси. – Тошкент: Фан, 1981. – 59 б.; Маҳмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тили сўз ясалишига бир назар // Ўзбек тили ва адабиёти. – 1987. – № 3. – Б. 36–41; Мухамедова С.Х. Ўзбек тилида ҳаракат феълларининг семантик ва валентлик хусусиятлари: Филол. фан. док. ...дисс. – Тошкент: Низомий номидаги Тошкент давлат педагогикауниверситети, 2007. – 325 б.; Шарипова Ў. Юмуш феълларининг маъно валентликлари. – Тошкент: Фан, 2012. – 72 б.

³ Штеффенс Д., Никитина О.А. От словаря неологизмов немецкого языка к немецко-русскому словарю неологизмов // Acta Linguistica Petropolitana. Труды Института лингвистических исследований. – 2012. – Т. VIII, № 3. – С. 371–394; Klappenbach R., Steinitz W. Wörterbuch der deutschen Gegenwartssprache. Bd. 2. – Berlin: Akademie-Verlag, 1968; Wiegand H.E. Neologismenwörterbücher: Ein internationales Handbuch zur Lexikographie. – 2. Teilbd. – Berlin; New York: Walter de Gruyter, 1990. – 632 S.; Kinne M. Neologismus und Neologismenlexikographie im Deutschen: zur Forschungsgeschichte und zur Terminologie, über Vorbilder und Aufgaben // Deutsche Sprache. – 1996. – Jg. 24, H. 4. – S. 327–358; Herberg D. Neologismen der Neunzigerjahre // Neues und Fremdes im deutschen Wortschatz: aktueller lexikalischer Wandel / hrsg. von Gerhard Stickel. – Berlin; New York: Walter de Gruyter, 2001. – S. 89–104; Doris S., Doris al-W. Neuer Wortschatz: Neologismen im Deutschen 2001–2010: in 2 Bdn. – Mannheim: Institut für Deutsche Sprache, 2013. – 430 S.; Lemnitzer L. Brauchen wir neue Wörter? / Hrsg. von Eberhard-Karls-Universität Tübingen, Seminar für Sprachwissenschaft. – Tübingen, 2004. – 11. November. – 35 S.; Исмаилов Ю.Н. Состав и формирование «высокой» лексики современного немецкого языка: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Ташкент: Узбекский государственный университет мировых языков, 1994. – 24 с.; Тошалиева С.И. Ўзбек тилида окказионал сўз ясалиши: Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент: Тошкент давлат университети, 1998. – 136 б.; Тўхтасинова О.Ю. Ўзбек тилида лексик окказионализмлар ва уларнинг бадиий-эстетик хусусиятлари: Филол. фан. номз. ...дисс. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги тил ва адабиёт институти, 2007. – 131 б.; Ахмедов А.Б. Ҳозирги немис тили лексикасида инновацион жараёнлар: Филол. фан. фалс. док. ...дисс. – Тошкент: Самарқанд давлат чет тиллар институти, 2018. – 126 с.

tilida paydo bo‘lgan fe’l-neologizmlar misolida ko‘rib chiqildi. Qayd etilgan manbalar neologizmlar va fe’l-neologizmlar nazariy aspektlari hamda mazkur lingvistik birliklarning xususiyatlarini o‘rganishda muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Yuqorida nomlari keltirilgan mualliflarning tadqiqotlarida asosiy e’tibor neologizmlarning so‘z yasalish – derivatsion potensiali, diskursdagi xususiyatlari, semantik jihatlari, leksikografik talqini tahlil qilingan, shunga ko‘ra aynan fe’l-neologizmlarning verbosentrik xususiyatlari fragmentar tadqiq etilmagan va o‘zbek tilshunosligida nemis tili bilan bog‘liq holda fe’l-neologizmlarning valentlik xususiyatlari, ular asosida gaplarni modellashtirish alohida ilmiy tadqiqot predmeti sifatida o‘rganilmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta‘lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya mavzusi O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetining “Lingvistika va xorijiy tillarni o‘qitish samaradorligini oshirishning nazariyasi va amaliyoti” mavzusida olib borilayotgan istiqbolli ilmiy tadqiqot ishlari rejasining tarkibiy qismi hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi hozirgi zamon nemis tilida fe’l-neologizmlarning integratsiya jarayoni doirasidagi verbosentrik xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

tilshunoslikda verbosentrism konsepsiyasining nazariy-amaliy jihatlarini o‘rganish, uning gap strukturasidagi o‘rni va ahamiyatini yoritish;

gapning verbosentrik konsepsiysi asosida fe’l-neologizmlarning valentligi, aktant, sirkostant kabi xalqaro til doirasidagi tushunchalar va ularning mavqeyini yoritib berish;

tilda yangi fe’lli birliklar paydo bo‘lishining ichki va tashqi omillari sabablarini hamda assimilyatsiya jarayonidagi leksikografik, paradigmatik xususiyatlarini ochib berish;

valentlik nazariyasiga binoan fe’l-neologizmlar bilan yasalgan gap modellarini o‘rganish.

Tadqiqotning obyekti sifatida hozirgi zamon nemis tilida yangi paydo bo‘lgan fe’l-neologizmlar tanlangan.

Tadqiqotning predmetini nemis tilidagi fe’l-neologizmlarning verbosentrik, leksikografik va semantik xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari sifatida yaxlit tanlab olish, tasniflash, diaxronik, komponent va distributiv tahlil hamda statistik tahlilning fragmentlari kabi tadqiqot metodlaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

semantik derivatsiya mexanizmlari yordamida paydo bo‘lgan fe’l-neologizmlarining yangi leksik semantik variantlari asl fe’ldan konnotativ, qo‘llanilish sohasi va sintaktik strukturasi bilan farqlanishi nemis tili materialida gap bo‘laklari o‘rtasidagi subyektsentrism, subyekt-predikat va verbosentrik kabi iyerarxiya munosabatlarini asoslash orqali aniqlangan;

verbosentrik konsepsiyasida gapning fe’l-predikati valentlik tashuvchisi sifatidagi xususiyati, boshqa bo‘laklarning unga tobelik munosabati, valentlikni boshqaruvchi aktant va sirkosantlar boshqa gap bo‘laklari bilan majburiylik va

ixtiyoriylik asosida ifodalanishi Valentlik tahlili hamda aktant va sirkonstantlarning sintaktik distribusiyasi asosida isbotlatgan;

fe'l-neologizmlarning paydo bo'lishi, shakllanishi, tilga singishini, til sathlariga integratsiya jarayonidagi lingvistik belgilari, turlarga tasniflanishi va paradigmatic munosabatlarda sinonimiya, antonimiya, gipo-giperonimiya xususiyatlari transformatsion-sintaktik tahlil orqali asoslangan;

nemis tilida fe'l-neologizmlarning valentligi bo'yicha gap modellari orasida bir valentli (bir majburiy, bir majburiy va bir ixtiyoriy, ikki va uch ixtiyoriy) va ikki valentli sintaktik qurilmalar (ikki majburiy, ikki majburiy va bir ixtiyoriy, ikki, uch ixtiyoriy) ustuvorligi valentlik modelini aniqlashda sintaktik-pozitsion tahlil usuli orqali isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

hozirgi zamон nemis tilida fe'l-neologizmlarning verbosentrik xususiyatlariغا doir ilmiy izlanishlarning amalga oshirilishi natijasida olingan ishonchli xulosalar leksikologiya, neologiya, stilistika kabi yo'naliishlarni yangi ilmiy-nazariy va amaliy qarashlar bilan boyitishi, lingvomadaniyatshunoslikka doir tadqiqotlar yaratishda xizmat qilishi asoslangan;

izlanishlar natijasida saralangan va bugungi kunda faol foydalanishda bo'lgan 200 ta fe'l-neologizmlar Y.Ismailov, Sh.Karimovlarning 2020-yilda chop etilgan "Nemischa-o'zbekcha, o'zbekcha-nemischa" lug'atining 4-nashriga yangi leksik birlik sifatida kiritildi va ular turlarga mos ravishda "Neolexem" (yangi leksema) "Neubedeutung" (yangi ma'no) stilistik belgilari bilan ajratildi;

tadqiqot davomida ishlab chiqilgan fe'l-neologizmlarni tasniflash tamoyillari ikki tilli va izohli lug'atlarini tuzishda, shuningdek, nemis tilini chet tili sifatida o'rganish, tarjimashunoslikda qo'llanilishi mumkin;

olingan materiallar va leksik ma'lumotlar bazalari neologizmlarning leksikografik tavsifida yangi istiqbollarni ochadi va lingvistik dasturiy resurslarga, masalan, matnni avtomatik tahlil qilish tizimlari, elektron tarjima ma'lumotlar bazalari va korpus texnologiyalari bilan birlashtirilishi mumkin;

tadqiqot natijalarini nemis va o'zbek tillari o'rtasidagi qiyosiy tadqiqotlarda, xususan, valentlik tipologiyasi, so'z yasalishi faoliyati nuqtayi nazaridan ham qo'llash mumkin.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi unga oid materiallarga respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy-uslubiy va ilmiy-amaliy konferensiyalar materiallari, OAK ro'yxatidagi jurnallar hamda xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalarning asoslanganligi, tadqiqot xulosalarining respublika miqyosida amaliyotda joriy etilganligi, natjalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, nemis tilida fe'l-neologizmlarning verbosentrik xususiyatlari tadqiqidan olingan tahlillar, ularning til tizimiga moslashuvini o'rganishga oid ilmiy xulosalar, keltirilgan fikr-mulohazalar neologiya, pragmalingvistika, leksikologiya, sotsiolingvistika, leksikografiya va terminografiya, stilistika, kommunikativ tilshunoslik sohalariga oid tadqiqot

muammolarini yoritishda ilmiy-nazariy manba bo‘lib xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati olingan xulosalardan oliy o‘quv yurtlarining xorijiy filologiya fakultetlarida ma’ruza matnlari, o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar, ilmiy risolalar, ikki tilli, onlayn va elektron lug‘atlar yaratish, darsliklar, shuningdek, “Leksikologiya”, “Stilistika”, “Chog‘ishtirma grammatika”, “Leksikografiya”, “Nazariy grammatika va til tarixi”, “Sotsiolingvistika” kabi fanlarga oid ma’ruzalar, shuningdek, nemis tilidan o‘zbek tiliga tarjima amaliyoti uchun zarur manba xizmatini o‘taydi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Nemis tilida fe’l-neologizmlarning verbosentrik xususiyatlarni tadqiq etishdan olingan natijalar asosida:

nemis tili materialida gap bo‘laklari o‘rtasidagi subyektsentrizm, subyekt-predikat va verbosentrizm kabi iyerarxiya munosabatlarining tilshunoslikdagi terminologik ahamiyati dalillanganligiga oid xulosalaridan Qo‘qon davlat pedagogika institutining “O‘zbekiston oliy o‘quv yurtlarining nofilolgik fakultetlarida bakalavr yo‘nalishi bo‘yicha nemis tili fanini o‘qitishda yangi pedagogik texnologiyalarni tatbiq etishga oid darslik yaratish” mavzusidagi fundamental loyihasi doirasida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2018-yil 27-dekabrdagi № 89-03-4484-sodan ma’lumotnomasi). Natijada loyiha ilmiy jihatdan boyitildi, xususan, verbosentrizm, fe’l valentligi, neologiya, neologizm, neografiya, konversiya kabi lug‘aviy birliklarning ma’nolari boyitilgan;

verbosentrik konsepsiyasida gapning fe’l-predikati valentlik tashuvchisi sifatidagi xususiyati, boshqa bo‘laklarning unga tobelik munosabati, valentlikni boshqaruvchi aktant va sirkosantlar boshqa gap bo‘laklari bilan majburiylik va ixtiyorilik asosida ifodalanishi hamda ushbu ilmiy nazariyada o‘ziga xos “bo‘shliq”lar mavjudligi isbotlatganligiga oid tadqiqot natijalaridan Yevropa Ittifoqining Erasmus+ dasturi “ICM, KA-107 – International Credit Mobility between European Union and Uzbekistan HEIs, through staff and student mobility exchange projects” (Yevropa ittifoqi hamda O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalari o‘rtasida xalqaro tajriba almashinushi doirasidagi kredit safarbarligi) 2019–2022-yillarda amalga oshirilgan loyihasining tilshunoslik bo‘limida foydalanilgan (O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetining 2023-yil 14-avgustdagi № 137a-sodan ma’lumotnomasi). Natijada fe’l-neologizmlarning tavsifi, klassifikatsiyasi, turdosh tushunchalardan farqlanish mezonlari, assimilyatsiya jarayonida grammatick, fonetic, orfografik o‘zgarishlari, shuningdek, ularning lingvomadaniy va milliy-madaniy xususiyatlari ochib berilgan;

fe’l-neologizmlarning paydo bo‘lishi, shakllanishi, tilga singishini, til sathlariga integratsiya jarayonidagi lingvistik belgilari, turlarga tasniflanishi va paradigmatic munosabatlarda sinonimiya, antonimiya, gipo-giperonimiya xususiyatlari asoslanganligiga oid xulosalaridan 2020–2023-yillarda Yevropa Ittifoqining Erasmus+ dasturi “ICM, KA-107 – International Credit Mobility between European Union and Uzbekistan HEIs, through staff and student mobility exchange projects between Uzbek State University of World Languages (Uzbekistan) and Ruhr

University Bochum (Germany) – 2020-1-DE01-KA107-005433-(Yevropa Ittifoqi hamda O‘zbekiston oliv ta’lim muassasalari o‘rtasida xalqaro tajriba almashinuv doirasida O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti hamda Boxumdag‘i Rur universiteti (Germaniya) o‘rtasidagi kredit safarbarligi) amalga oshirgan loyihasining leksikografiya yo‘nalishi bo‘limida foydalanilgan (O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetining 2023-yil 14-avgustdagi № 137b-son ma’lumotnomasi). Natijada nemis tilida fe’l-neologizmlar gap sintaktik strukturasi valentligiga ko‘ra o‘rganilgan, verbalizatsiya, prefiksatsiya, suffiksatsiya, so‘z qo‘shilish, semantik derivatsiya, so‘z kengayishi va torayishi, teleskopiya, kontaminatsiya kabi lingvistik hodisalarning fe’l-neologizm valentligiga ta’sir doirasi tasvirlangan;

nemis tilida fe’l-neologizmlarning valentligi bo‘yicha gap modellari orasida bir valentli (bir majburiy, bir majburiy va bir ixtiyoriy, ikki va uch ixtiyoriy) va ikki valentli sintaktik qurilmalar (ikki majburiy, ikki majburiy va bir ixtiyoriy, ikki, uch ixtiyoriy) ustuvorligi isbotlanganligiga doir tadqiqot natijalaridan “O‘zbekiston – Germaniya” do‘stlik jamiyati tomonidan 2022-yilning 12-mayida tashkil etilgan “O‘zbekiston va Germaniya yosh germanshunos olimlar ilmiy-amaliy konferensiyasi”da “Hozirgi zamon nemis tilida neologizmlarning til lug‘at tarkibini yangilanishdagi o‘rni” mavzusidagi ma’ruza manbasi bo‘lib xizmat qlgan (“O‘zbekiston – Germaniya” do‘stlik jamiyatining 2023-yil 21-iyuldag‘i № OD-06-son ma’lumotnomasi). Natijada ma’ruzada keltirilgan neologizmlar, neologiya, kulturonom, sinonimlarning semantik (ideografik), dominant, semantik-uslubiy turlari hamda fe’l-neologizmlarning paradigmatic munosabatdagi enantiosimiya, giponimiya kabi lingvistik hodisalari konferensiya materiallarini boyitdi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 13 ta xalqaro va 7 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 35 ta ilmiy ish, shundan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini nashr qilish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 15 ta maqola, jumladan 13 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, umumiy xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 128 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti, predmeti tavsiflangan, mavzuning respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, olingen natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining joriylanishi, nashr qilingan ishlar hamda tadqiqotning tuzilishi haqida ma’lumot berilgan.

Dissertatsiyaning “**Tilshunoslikda verbosentrik konsepsiyaning nazariy asoslari**” deb nomlangan birinchi bobida verbosentrizm tushunchasining ta’rifi, verbosentrizm va uning komponenti bo‘lgan valentlikning o‘zaro bog‘liqligi, verbosentrizm konsepsiyaning xorijiy va o‘zbek tillarida o‘rganilishi, uni retrospektiv aspektda o‘rganish atroflicha yoritilgan. Shu bilan birga, mazkur bobda dissertatsiyada qo‘llanilgan asosiy terminlarga ishchi ta’riflar ham berilgan.

Jahon tilshunosligida kesim gapning tuzilish markazi ekanini olg‘a suruvchi sintaktik nazariyaning asoschisi sifatida L.Tenyer e’tirof etiladi. Chunki, aynan ushbu tilshunos bu g‘oyani lingvistik konsepsiya darajasiga ko‘tardi. L.Tenyer sintaktik konsepsiyasida gap markazi fe’l hisoblangani uchun bu yo‘nalish jahon tilshunosligida verbosentrizm (lot. verbum “fe’l”) nomi bilan ham yuritiladi. Bu nazariya Yevropa tillarini tadqiq qilishda qo‘l keldi, chunki bu tillardagi tuzilgan gapda fe’lning o‘rni yaqqol ajralib turar edi. O’tgan asrning o‘rtalarida fransuz olimi tomonidan tilshunoslikka kiritilgan ushbu termin butun dunyoda keng qamrovli tadqiqotlar olib borilishiga sababchi bo‘ldi, shuningdek, tilshunos tomonidan ilgari surilgan verbosentrizm nazariyasi asosida valentlik turadi. Fe’lning muhim ikki xususiyatiga uning valentligi hamda voqeа intensiyasi (maqsadi) kiradi. Ikkala tushuncha bir-biridan ajratilib, turfa xil usullarda ishlatiladi. Fe’l o‘zgaruvchan so‘z turkumi bo‘lib, valentlikka ega bo‘ladi. “Fe’lni ilgakka ega bo‘lgan atomga o‘xshatish mumkin, ilgaklarning ko‘p yoki kamligiga qarab u o‘ziga ko‘p yoki kam miqdorda aktantlarni tortib oladi. Fe’ldagi mazkur ilgaklar, qolaversa, u boshqaradigan aktantlar sonining mohiyatini biz valentlik, deb ataymiz”. Valentlik dastlab faqat fe’l uchun targ‘ib qilinadi va aktanlar funksiyasida fransuz tilida faqat uchta element kelishi mumkin deb izohlanadi: ega – tushum kelishigidagi to‘ldiruvchi – jo‘nalish kelishigidagi to‘ldiruvchi.

L.Tenyer egani birinchi aktant uchun semantik nom sifatida qaraydi. “Aktant”larning soniga qarab fe’llar to‘rt guruhga bo‘linadi⁴: (1) avalent fe’llar (aktantlarsiz); (2) monovalent fe’llar (bir aktantli); (3) divalent fe’llar (ikki aktantli); (4) trivalent fe’llar (uch aktantli). U fe’llar aktantlar turiga emas, aynan ularning soniga qarab farqlanishini alohida ta’kidlaydi. Aktantlar gapda asosan ega va to‘ldiruvchi funksiyasini bajarib kelsa, sirkostantlarga hol vazifasini bajarish yuklatilgan: “Alfred a donné le livre à Charles hier”⁵ – “Alfred kitobni Sharnga kecha berdi” – “Alfred”, “Sharnga”, “kitobni” so‘zlarini bu aktantlar hisoblanadi, ularsiz gap to‘liq bo‘la olmaydi, “kecha” so‘zi bo‘lsa sirkonstant hisoblanadi, uning yo‘qligi gapga umuman ta’sir qilmaydi.

Valentlik muammolari bo‘yicha dunyoning juda ko‘p mamlakatlarida olimlar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Valentlik nazariyasing bugungi kungi lingvistik tadqiqotlar ichidagi muhimligi yana shundan iboratki, L.Tenyer tomonidan yaratilgan konsepsiya bo‘yicha bahs-munozalar hozirgacha yetarli yechimini topmagan. Jumladan, R.S. Ambarsumyan valentlik ilmiy nazariyasida to‘rtta o‘ziga

⁴Теньер Л. Основы структурного синтаксиса / пер. с фр. И.М. Богуславского и др.; вступ. ст. [с. 5-21], общ. ред. [и коммент.] В.Г. Гака. – Москва: Прогресс, 1988. – 653, [1] с.

⁵Теньер Л. Основы структурного синтаксиса / пер. с фр. И.М. Богуславского и др.; вступ. ст. [с. 5-21], общ. ред. [и коммент.] В.Г. Гака. – Москва: Прогресс, 1988. – 653, [1] с.

xos “bo‘shliq”larni sanab o‘tadi. Biroq ushbu “bo‘shliq”lar keyinchalik valentlikning taraqqiyotiga katta turtki bo‘lganligini ham ta’kidlash zarur. Tilshunosning fikricha, bu “bo‘shliqlar” quyidagilardan iborat⁶:

1. Konsepsiyada valentlik formal yoki tushunchali kategoriya sifatida izohlanganligi noaniqligicha qolgan.

2. Fe'lning ikkita tobe turlarini ajratadi: aktantlar va sirkostantlar. Bu ikki bo‘lak semantik kriteriyalar asosida tavsiflanadi. L.Tenyer konsepsiyasi bo‘yicha faqat aktantlargina valentli bog‘lovchi bo‘lak bo‘la olishi mumkin. Biroq til hodisalariga asoslangan holda, nafaqat aktantlar, balki hol ham sintaktik jihatdan majburiy bo‘ladi. Misol uchun, “Das Buch liegt auf dem Tisch” gapidagi o‘rin holi ham sintaktik jihatdan valentli aloqa bo‘lagi bo‘la olish mumkin.

3. Konsepsiyadagi uchinchi bo‘shliq – bu gapda aktantlarning majburiy/ixtiyoriy amalga oshirilishidir. Valentlikning zamonaviy bosqichida majburiy va ixtiyoriy aktantlar ajratilib, ixtiyoriy aktant gapda fe’l munosabati bilan bog‘liq bo‘lsa hamki, har bir gapda ixtiyoriy amalga oshiriladi. Misol uchun, “Der Angeklagte erklärte dem Richter seinen Fall”⁷ gapidagi tagiga chizilgan fakultativ aktant hisoblanadi, chunki *erklären* fe’li ushbu ma’noda ikkita majburiy va bitta fakultativ joyni “ochadi”.

4. Ta’limotdagagi yana bir “bo‘shliq” predlogli birikmalarni sintaktik mavqeyidan qat’i nazar valentli aloqa bo‘laklariga kiritmaslik. Lekin til manbalari bu yerda ham predlogli birikmalar, ham kelishiklar gapda haqqoniy ravishda valentli aloqa bo‘lagi bo‘la olishini ko‘rsatib berdi.

- *Er schickt seinem Vater einen Gruß.*
- *Er schickt einen Gruß an seinen Vater*⁸.

Keltirilgan gaplardagi tagiga chizilgan bo‘laklarning farqlari sof formal-morfologik bo‘lib, semantik va sintaktik planda ular bir ma’nolidir. L.Tenyerning nazariyasiga ko‘ra, birinchi gapdagi “*auf den Ausweis*” bo‘lakni predlogli hol, ikkinchi gapdagi “*auf den Tisch*” gap bo‘lagini bo‘lsa o‘rin holi, uchinchi gapdagi “*das Feuerzeug*”ni sof sof nominal bo‘lak va aktant deb qaraydi hamda u fe’l bilan mustahkam bog‘langan. L.Tenyer predlogli frazalarni valentlikka bog‘liq bo‘lmagan elementlar (aktantlar emas), deb izohlaydi: “*Mein Freund verzichtet freudenlos...*” va “... *stellte das gelesene Buch*” tipidagi gaplar grammatik jihatdan noto‘liq hisoblanadi, chunki “*auf den Ausweis*” va “*auf den Tisch*” predlogli frazalari valentlik munosabatida fe’l tomonida bo‘ladi va fe’lning subkategorizatsiyasiga ta’sir qiladi. Aktant va hollarni farqlashda predlogli obyekt va holda ifodalangan holatning zaruriyligini, masalan “*Mein Freund verzichtet freudenlos auf den Ausweis*” va “... *stellte das gelesene Buch auf den Tisch*” L.Tenyer tomonidan e’tibordan chetda qoladi. Demak, predlogli guruhlар xuddi sof otli kelishiklar singari “*Klaus sah das Feuerzeug*” bir xil funksiya va ma’noga ega. Faqat ega va otli obyektlarni aktantlarga kiritgan L.Tenyerga qarshi o‘laroq, U.Engel, P.Grebe, G.Xelbig, V.Shenkel va Y.Erben

⁶Амбарцумян Р.С. Логико-семантические и синтаксические аспекты теории валентности (немецкий язык): Дисс. ...канд. филол. наук. – Москва: Минский государственный педагогический институт иностранных языков, 1976. – 144 с.

⁷Кибардина С.М. Валентность немецкого глагола: Дисс. ...док. филол. наук. – Вологда: Вологодский государственный университет, 1988. – 580 с.

⁸Engel U. Deutsche Grammatik (Neubearbeitung). – München: Iudicium, 2004. – S. 128.

kabi bir guruh germanistlar aktantlar va hollarni ajratib ko'rsatishadi.

Shunday qilib, L.Tenyer an'anaviy grammatikaning subyekt-predikat strukturasiga dadil qarshi chiqadi, chunki formal mantiqning lingvistikaga hech qanday aloqasi yo'q. Uning aktantlar va holning so'z turkumlari haqidagi juft ta'rifi hamda semantik roli keyinchalik valentlik nazariyasiga asos soldi⁹.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "**Fe'l-neologizm lingvistik tadqiqot obyekti sifatida**" deb nomlangan bo'lib, unda neologizm, fe'l-neologizm tushunchalarining lingvistik va leksikografik talqini atroflicha yoritilgan. Fe'l nafaqat til tizimining, balki madaniyatning hodisasi sifatida ham tadqiqotchilarda qiziqish uyg'otadi. Til va jamiyat ajralmas qismadir, ular doimo o'zaro aloqada bo'lishadi va bir-biriga ta'sir o'tkazishadi. Tilda yangi paydo bo'lgan so'z va iboralar neologizmlar deb ataladi. Neologizm so'zi asli grek tilidan kelib chiqqan bo'lib, "neos" – "yangi" va "logos" – "so'z, fan" degan ma'noni anglatadi. Tilshunoslik tarixida "neologizm" so'zi dastlab Fransiyada 1734-yilda nashr qilingan "Tresor de la Langue Francaise" risolasida tilga olinadi¹⁰.

D.Xerbergning fikricha, "neologizmlar – leksik birlik/ma'no bo'lib, til taraqqiyotining ma'lum bir qismida paydo bo'ladi, tarqaladi, lingvistik me'yor sifatida tan olinadi va taraqqiyot davrida ko'pchilik til foydalanuvchilari tomonidan belgilangan vaqt mobaynida yangi voqelik sifatida qabul qilinadi. Tilshunos neologizmlarni boshqa leksik yangi so'zlardan, jumladan, okkazionalizmlardan to'rt xil chegaralanish mezonlari asosida farqlaydi: *paydo bo'lish, qabul qilinish, leksikalizatsiya va integratsiya*¹¹. Neologizmga berilgan ta'riflar yakdil emasligi tilshunoslар orasida hozirgacha bahs-munozalarga sabab bo'lmoqda. O'tgan asrning 70-yillarda tilshunoslар "neologizmlarga hozirgacha yetarli darajada aniqlik krita olmaganliklarini" tan olishadi. Neologizmlarga endi nafaqat leksik dinamika hodisasi sifatida, balki leksikologiya, leksikografiya va so'z yasalish aspektlari nuqtayi nazaridan ham e'tibor berila boshlandi.

Mazkur bobda, shuningdek, fe'l-neologizmlarning boshqa leksik neologizmlar orasidagi o'mi, ularning yasalish usullari aniqlanadi va lingvomadaniy aspektida o'rganiladi. Alovida paragrafda neologizmga ma'nodosh bo'lgan okkazionalizm so'zlar ta'rifi misollar bilan keltiriladi va neologizmlardan farqli tomonlari ko'rsatiladi. Shuningdek, ushbu bobda nemis tilida 1990–2020-yillarda paydo bo'lgan va yasalgan fe'l-neologizmlarning kompleks tahlil natijalari keltiriladi, yangi birliklar formal va semantik nuqtayi nazardan tizimlashtiriladi va bunda ularning grafik, morfologik, fonetik va so'z yasalish integratsiya aspektlari hisobga olinadi. Neologizm paydo bo'lib tilda tarqaladi va adabiy tilning umumiylug'at tarkibiga qabul qilinsa, okkazionalizm unga qarama-qarshi ravishda ma'lum bir vaqt oralig'ida tarqaladi va undan so'ng umumiylil til leksikasidan chiqib ketadi. "So'z estetikasi" risolasida X.Abdurahmonov va N.Maxmudovlar neologizmlarni shunday izohlashadi: "Til neologizmlari tilning lug'at fondini boyitadi. Ularni yaratishdan maqsad ham yangi tushunchalarni ifodalashdir.

⁹Тенъер Л. Основы структурного синтаксиса / пер. с фр. И.М. Богуславского и др.; вступ. ст. [с. 5-21], общ. ред. [и коммент.] В.Г. Гака. – Москва: Прогресс, 1988. – С. 22–26.

¹⁰Teubert W. Neologie und Korpus. – Bd. 11. – Tübingen: Gunter Narr Verlag, 1998. – S. 68.

¹¹Herberg D. Neologismen der Neunzigerjahre // Neues und Fremdes im deutschen Wortschatz: aktueller lexikalischer Wandel / hrsg. von Gerhard Stickel. – Berlin; New York: Walter de Gruyter, 2001. – S. 89–104.

Shuning uchun ham ular paydo bo‘lgandan keyin tez orada faol lug‘atga o‘tib ketadi”¹². M.Kinnening fikricha, neologizm tushunchasi statistik emas, balki protsessual-dinamik tabiatga ega¹³. Har bir neologizm o‘zining paydo bo‘lish tarixida ma’lum bir ma’noda okkazionalizm ham hisoblanib, tilga integratsiya jarayonida quyidagi bosqichlarni bosib o‘tadi: 1) paydo bo‘lish; 2) qabul qilinish; 3) leksikalizatsiya; 3) integratsiya, ya’ni umumiyl til lug‘atidan mustahkam joy olish. Ushbu lingvistik jarayonni quyidagi rasmda ham kuzatish mumkin (1-rasmga qarang):



1-rasm. Neologizmlarning taraqqiyot davri

Rasmdan ko‘rinib turibdiki, so‘nggi – leksikalizatsiya bosqichidan o‘tgan neologizm endi yangi so‘z hisoblanmaydi. Ba’zi tilshunoslar neologizmlarga okkazionalizmlar va potensial so‘zlarni sinonim sifatida qo‘ydilar¹⁴. Lekin bu ikki leksik birliklar neologizmlardan tubdan farq qilishini ta’kidlashimiz joiz. Jumladan, okkazionalizmlarni farqlashdagi eng asosiy mezonlar sifatida “mualliflik” va “faqat nutq”qa xoslik bo‘lsa, potensial so‘zlar hali real hayotda mavjud bo‘lmagan, xayoliy realiyalarni ifoda etadi. “O‘zbek tilida okkazional so‘zlar va ularning badiiy-estetik xususiyatlari” ustida ilmiy tadqiqot olib borgan O.Y. To‘xtasinova shunday ta’rif beradi: “Okkazional so‘zlar – tilga xos bo‘lgan kamunum yoki unumsiz so‘z yasash qolipi asosida, shuningdek, okkazional qoliplar bo‘yicha yasalgan bo‘lib yoki ular ma’lum vaziyat uchun yoki odatdagi ma’lumot uchun yoki badiiy maqsad uchun yaratiladi”¹⁵. Tilshunoslik terminlari lug‘atida X.Bussmann neologizmlar deganda “jamiyat a’zolari tomonidan siyosat, madaniyat, fan yoki boshqa sohalardagi yangi tushunchani nomlash uchun paydo bo‘lgan yangi yasalgan so‘z yoki ibora”ni¹⁶ tushunadi. X.Elzen ham D.Xerbergga qo‘shilgan holda neologizmlarga “ma’nosi yoki shakliga ko‘ra yoki keltirilgan ikki mezonga asosan tilning umumiyl foydalanadigan lug‘atlariga kirmagan yangi leksik yasalmalar”ni kiritadi.

Zamonaviy nemis tili leksikasining yangilanish jarayonini quyidagi ikki davrga ajratish mumkin¹⁷:

1. 1945-yildan keyin paydo bo‘lgan so‘zlar.
2. 1989-yildan keyingi davr yangi so‘zları.

Birinchi davrda yangi so‘zlarning paydo bo‘lishi kuzatilgan bo‘lsa hamki, ularni tadqiq qilish ishlari ancha sust olib borilgan. Ikkinci davrda nafaqat Germaniyada,

¹² Абдурахмонов Х., Махмудов Н. Сўз эстетикаси. – Тошкент: Фан, 1981. – Б. 29.

¹³ Kinne M. Neologismus und Neologismenlexikographie im Deutschen: zur Forschungsgeschichte und zur Terminologie, über Vorbilder und Aufgaben // Deutsche Sprache. – 1996. – Jg. 24, H. 4. – S. 327–358.

¹⁴ Kinne M. Neologismus und Neologismenlexikographie im Deutschen: zur Forschungsgeschichte und zur Terminologie, über Vorbilder und Aufgaben // Deutsche Sprache. – 1996. – Jg. 24, H. 4. – S. 327–358.

¹⁵ Тўхтасинова О.Ю. Ўзбек тилида лексик окказионализмлар ва уларнинг бадиий-эстетик хусусиятлари: Филол. фан. номз. ...дисс. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги тил ва адабиёт институти, 2007. – 131 б.

¹⁶ Bussmann H. Lexikon der Sprachwissenschaft. – 2., überarb. Aufl. – Stuttgart: Alfred Kröner Verlag, 1990. – 904 S.

¹⁷ Elsen H. Neologismen: Formen und Funktionen neuer Wörter in verschiedenen Varianten des Deutschen. – Tübingen: Gunter Narr Verlag, 2004. – 312 S.

balki butun dunyoda katta o‘zgarishlar davri, tilda bo‘lsa “yangi so‘zlar oqimi” davri sifatida ham e’tirof etiladi.

Tilshunoslikda enantiosimiyaga O.S.Axmanovaning “Tilshunoslik terminlari lug‘ati”da umumiy etimologiyaga ega, ifoda planida mushtarak, mazmun planida to‘g‘ri qarama-qarshi bo‘lgan leksik-semantik til hodisasi deb izoh keltiriladi¹⁸. Enantiosimiya ko‘pma’nolik bilan bog‘liq bo‘lib, ba’zi tilshunoslар uni leksik omonimiya deb ham ta’riflashadi.

2010-yil Germaniyada ekologiya tarafдорлари va keng jamoatchilik “Castor schottern” nomli norozilik namoyishida radioaktiv chiqindilarni temir yo‘l izlarida olib chiqib ketishga to‘sinqinlik qilish uchun poyezdlar harakatlanadigan reqlardan toshlarni olib tashlashga kirishadilar. Bu e’tiroz natijasida 2011-yil “Brockhaus - Wahrig: Deutsches Wörterbuch” lug‘atidan¹⁹ “Schotter” (*maschinell zerkleinerte Steine, die zur Beschotterung dienen*) otidan fe’llashgan yangi leksema “schottern” joy olib, u “zur Behinderung des Zugverkehrs aus einem Gleisbett den Schotter entfernen” deya izohlandi. Qiziq tomoni shundaki, ushbu fe’l asl denotativ lug‘aviy ma’nosи “eine Straße, Eisenbahnstrecke mit Schotter bedecken” yangi semantik shaklining aksi “ko‘cha va va temir yo‘lni tosh bilan to‘ldirmoq” bo‘lib, o‘z-o‘zidan asl ma’nosи yangisining aksini ifodalaydi va natijada bir so‘zning ichki so‘z antonimiysi – enantiosimiya sodir bo‘ladi. Manbalarda bunday lingvistik hodisa ba’zan kontrantonimiya²⁰ deb ham beriladi:

- *Wir besserten damals die Gleise der Bahnstrecke aus ... schotterten, stopften und planierten.*
- *Handschuhe und festes Schuhwerk mit ins Wendland zu bringen. „So kann man besser schottern“, sagt die 55-jährige...*

Biroq bu hodisa shu bilan yakun topmadi, yuqorida ta’rifi keltirilgan “ent” prefaksi bilan yana bir fe’lli leksema – “entschottern” leksik fe’l-neologizmi ham paydo bo‘lib, “schottern” keyingi ma’nosiga sinonim bo‘lib qoldi. Ushbu lingvistik hodisaning quyida keltirilgan rasmda “schottern” fe’l-neologizm misolida ko‘rish mumkin. Mazkur fe’l-neologizm o‘zining denotativ ma’nosidan yangi ma’nosiga o‘tishi ifodalangan (2-rasmga qarang).

Die 150 Gleismeter, die entschottert wurden, stoppten den Castor hingegen nicht. Qayd etish joizki, yangi mustaqil leksik birlik sifatida shakllangan bo‘lsa ham, “entschottern” fe’l-neologizmi qo‘llanilish darajasida unchalik ham faol emas.

Giponimiya²¹ – semantik maydonda paradigmatic munosabatlarning asosiy turlaridan biri bo‘lib, qarindoshlik munosabatlarida asoslangan elementlarni iyerarxik tashkil qiladi. Umumiyl tushunchani ifodalaydigan so‘zlar giperonimlar, tor ma’noni bildiruvchi so‘zlar bo‘lsa giponimlar deyiladi. Ushbu paradigmatic qatorning keyingi tushunchasi sogiponim yoki kogiponim bo‘lib, umumiyl giperonimga ega bo‘lgan so‘zlarga aytiladi²². Ular o‘zaro bir sinf elementi sifatida munosabatda

¹⁸ Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – 2-е изд., стер. – Москва: УРСС: Едиториал УРСС, 2004. – 571 с.


¹⁹ Wahrig G. Deutsches Wörterbuch. – 9., aktualisierte Auflage. – München: Bertelsmann, 2011. – 1664 S.

²⁰ Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – 2-е изд., стер. – Москва: УРСС: Едиториал УРСС, 2004. – 571 с.

²¹ Ярцева В.Н. (гл. ред.). Лингвистический энциклопедический словарь. – 2-е изд., доп. – Москва: Большая Российская энциклопедия, 2002. – С. 123.


²² Ярцева В.Н. (гл. ред.). Лингвистический энциклопедический словарь. – 2-е изд., доп. – Москва: Большая Российская энциклопедия, 2002. – С. 123.

bo‘lib, giperonim ma’nosiga kirishadi, ammo shu o‘rinda mos differensial sema bilan farqlanadi.



2-rasm. Fe’llar kontrantonimiysi

Fe’l-neologizmlar orasida ham gipo-giperonimik munosabatdagi leksemalar uchraydi. “*Texten*” – semantik fe’l-neologizmi “*einen Text, besonders eine Kurznachricht, in den elektronischen Medien schreiben und versenden*” – “*elektron vositalarda matn, qisqa xabar yozmoq va jo‘natmoq*”ni anglatib, ijtimoiy tarmoq, internet va telekommunikatsiya vositalarida aloqa qilish asosida yasalgan barcha “*bloggen*”, “*chatten*”, “*(e)mailen*”, “*simsen*”, “*wittern*”, “*whatsappen*” leksik fe’l-neologizmlarga va “*zwitschern*” semantik fe’li bevosita giponim bo‘lib, ushbu qatorning dominant leksemasi ham sanaladi. Shu o‘rinda aynan “*texten*”ni o‘zlariga giperonim sifatida belgilab, yuqoridagi barcha leksik va semantik fe’l-neologizmlar sogiponimlardir. Ko‘rinib turganidek, “asos” semasi “*xabar yozmoq va jo‘natmoq*” bo‘lsa, bu jarayonni ular turli xil differensial semalari orqali amalga oshirmoqdalar, bizning misolimizda ijtimoiy tarmoq turlari bilan aloqaga kirishish o‘z aksini topgan. Mazkur fe’l-neologizmlar ishtirokidagi qiziqarli lingvistik hodisani quyida berilgan rasmda ham ko‘rishimiz mumkin (3-rasmga qarang):



3-rasm. Fe’llar giponimiysi va sogiponimiysi

Yakka ko‘rinishdagi sogiponimlar ham mavjud masalan: “*entfolgen*” – “*entfreunden*”, “*entliken*”; “*parshippen*” – “*tindern*”; “*skypen*” – “*facetimen*”, “*voipen*”. Shuning uchun ham, neologizmlarga endi nafaqat leksik dinamika hodisasi sifatida, balki leksikologiya, leksikografiya va so‘z asalish aspektlari nuqtayi nazaridan ham e’tibor berila boshlandi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobiga “**Valentlik asosida fe’l-neologizmlarning gap modellari**” deb nomlanadi. Ushbu bobda dastlab fe’lning valentlik xususiyatlari asosida tuziladigan gap modeli tushunchasi izohlanadi. Nemis tilshunosligida “*Satzbaupläne, -muster, -chemata*” deb talqin qilinadigan mazkur modellar – bu mavhum strukturaviy qolip bo‘lib, uning asosiy maqsadi jumlalarning asosiy tuzilmalarini boshqarish mumkin bo‘lgan miqdorda ifodalashdir. Gapda modellar fe’lning semantik va sintaktik valentligi bo‘yicha farqlanadi. Fe’l o‘z atrofidagi bo‘sh joyga to‘ldiruvchilarini yig‘ishiga valentlik deb atalishi xususida oldingi bobda ham ta’rif berilgan. Ushbu bo‘sh joylar quyidagi elementlar orqali to‘ldirilishi mumkin:

- a) majburiy aktantlar orqali (qidaga asosan ular qoldirilishi mumkin emas);
- b) ixtiyoriy aktantlar (ular ma’lum bir kontekst shartlari asosida tushirilib qoldirilishi mumkin).

Majburiy va ixtiyoriy aktantlardan tashqari, gapda fe’lning valentligi bilan belgilanmagan va shu sababli modellariga kiritilmagan erkin to‘ldiruvchilar ham mavjud.

Tilshunoslikda gapni modellarga ajratishda yakdil fikr hanuzgacha mavjud emas. Gapni fe’l valentligi asnosida modellashtirish, bizningcha, Y. Erben kiritgan to‘rt valentli tasnif eng maqbul va hozirgacha ommabopdir. Ushbu tasnif aynan gap modellarini verbotsentrik yondashuvga asoslanib – bir, ikki, uch va ba’zi holatlarda to‘rt valentli modellarga ajratiladi.

